



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 21-may, № 102 (9273)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



BUNYODKORLIK LOYIHALARI BILAN TANISHILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev
turli sohalardagi bunyodkorlik
loyihalarini taqdimoti bilan tanishdi.**

Davlatimiz rahbariga Andijon viloyati Bobur shahrida barpo etiladigan me'moriy ansambl tarkibida buyuk davlat arbobi, sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan muhtasham haykal o'rnatish loyihasi taqdimot qilindi.

Buyuk ajdodimiz xotirasini munosib ulug'lash, uning boy ilmiy-adabiy merosi, davlatchilik tafakkuri va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasini yosh avlodga chuqur yetkazish maqsadida ushbu yodgorlikni alohida mazmun va badiiy yechim asosida yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Prezidentimizga bo'lajak haykalning eskizlari, kompozitsion yechimi va Bobur siymosini aks ettirish bo'yicha ilmiy-badiiy yondashuvlar haqida axborot berildi. Qayd etilganidek, buyuk tarixiy shaxs obrazi yurtimiz olimlari tomonidan xorijiy hamkasblar bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlar, ko'plab tarixiy manbalar, qo'lyozmalar, miniatyuralar va madaniy meros namunalarini chuqur o'rganish asosida yaratilmoqda.

Shu bilan birga, Prezidentimizning Pokistonga davlat tashrifi doirasida Islomobod shahridagi bog'lardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan atalgan edi. Mazkur bog'da ham buyuk ajdodimizga o'rnatiladigan haykal loyihasi ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari yodgorliklarni yaratishda Zahiriddin Muhammad Bobur siymosini nafaqat buyuk adib va shoir, balki mohir sarkarda, qudratli davlat asoschisi va donishmand hukmdor sifatida teran ochib berish zarurligini ta'kidladi. Uning irodasi, davlatchilik salohiyati, yuksak ma'naviyati va bunyodkorlik g'oyalari haykalning umumiy qiyofasida yaqqol aks etishi lozimligi qayd etildi.

Prezidentimizga Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internati moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, Buxoro shahrida turizm va transport infratuzilmasini rivojlantirish, tumanlardagi madaniyat uylarini modernizatsiya qilish yuzasidan ishlab chiqilayotgan loyihalar to'g'risida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni yanada takomillashtirib, ilg'or tajriba asosida puxta ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK QURBON HAYITINI NISHONLASH TO'G'RSIDA

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oyani chuqur qaror toptirishda barcha milliy va diniy qadriyatlarimiz qatori insonparvarlik, saxovat, shukronalik va bag'rikenglik kabi olijanob fazilatlarini o'zida mujassam etgan muborak Qurbon hayiti ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda ijtimoiy davlat barpo etish, yurtdoshlarimiz o'rtasida mehr-oqibatni kuchaytirish, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlash, hech kimni mehr va e'tibordan chetda qoldirmaslik borasida bu bayramning bezaval an'analari biz uchun kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Qurbon hayitini ana shu jarayonlarga mos holda munosib nishonlash, yurtimizda tinchlik-osoyshtalik, do'stlik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash maqsadida qaror qilaman:

1. O'zbekiston musulmonlari idorasining 2026-yilda muborak Qurbon hayitining birinchi kuni 27-may — chorshanba kuniga to'g'ri kelishi haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda **27-may Qurbon hayiti bayrami sifatida keng nishonlanadi.**

2. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

a) Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq, **Qurbon hayitning birinchi kuni ishlanmaydigan bayram kuni** sifatida belgilangani;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrda "2026-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida"gi PF-257-son Farmoni bilan quyidagilar **qo'shimcha dam olish kuni** sifatida belgilangani:

(i) ish haftasining turidan qat'iy nazar barcha xodimlar uchun 2026-yilning **28-may — payshanba, 29-may — juma** kunlari;

(ii) **olti kunlik** ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun **30-may — shanba** kuni.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Qurbon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda ko'tarinki kayfiyatda o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Qurbon hayiti kunlarida mo'tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarni tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratsin.

5. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Qurbon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi S.U.Umurzakov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 20-may

MILLAT SHAVKATI



Samarqandning o'tmishi nihoyatda qadimiy. Ammo bu kentni o'z saltanatiga markaz qilgan, uning ulug'vor va sharaflari tarixida o'chmas iz qoldirgan, shaharning salobatiga salobat qo'shgan hukmdorlar ko'p emas. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Yalangto'sh Bahodir... Bu nomlar bizgacha bo'lgan ming yillikni tamsil etadi xolos. Holbuki, shaharning tavalludi undan bir necha o'n asrlar nariga borib taqaladi.

Bundan taqriban uch ming yillar oldin ham bu yerda madaniyat va san'at, ilm-u ma'rifat gullab-yashnagan, o'z chiroyi va latofati bilan insoniyat tafakkuriga nur berib turgan. Xususan, miloddan avvalgi IV asrda Samarqandni egallagan Iskandar Maqdonli (Aleksandr Makedonskiy)ning "...U men eshitganimdan ham go'zalroq ekan" degan iqrori tarixiy manbalardan yaxshi ma'lum. O'z davrida dunyoning madaniy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy tayanchlaridan biri bo'lgan Samarqand nafaqat "Yer yuzining

sayqali", balki zamonlar osha dunyo tartibini belgilovchi qudrat (derjava) poytaxti ham bo'lgan.

Biroq bu muazzam kentning hayoti doim ham ravon kechmagan. Sohobqiron Amir Temur, so'ng uning nabirasi Mirzo Ulug'bek davri, yana ikki asr o'tib XVII asrning birinchi yarmida (o'sha vaqtda Samarqand Ashtarxoniylar sulolasi hukmron bo'lgan Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan) hokim Yalangto'sh Bahodir zamonlarida gullab-yashnagani moziydan ma'lum. Ammo

muarrixlar undan keyingi pallalar haqida ko'p so'zlamaydi. Buning sababi oddiy: chunki undan so'ng shaharning o'tmishida tanazzul davri kechgan... Ko'p uzoqqa borish shart emas. XIX-XX asrlardagi avval Chor Rossiyasi, keyin bolsheviklar bosqinida u katta talafotlar ko'rganini barchamiz yaxshi bilamiz. "Tenglar ichra teng" bo'lgan yoki istiqlol tongi otgan ilk yillar ham ko'hna kent tarixida ta'sirchan ahamiyat kasb etmadi.

► 2-3

Uchrashuv

QONUNIY MIGRATSIYA – USTUVOR VAZIFA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Xalqaro migratsiya tashkilotining Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Artur Yerken bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat davomida xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyani ta'minlash, odam savdosiga qarshi kurashish, mehnat migrantlarining huquq hamda manfaatlarini himoya qilish va ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston va Xalqaro migratsiya tashkiloti o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish, maqsadli qo'shma

loyihalarni kengaytirish hamda preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, migratsiya sohasida ilg'or tajribalarni o'rganish yuzasidan fikr almashildi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida paydo bo'layotgan odam savdosining yangi shakllari, onlayn ekspluatatsiya va virtual platformalar orqali sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda inson qadri va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan migratsiya siyosati izchil amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Jumladan, odam savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, tartibli mehnat migratsiyasini qo'llab-quvvatlash, xorijda ishlayotgan yurtdoshlarimiz huquqlarini ta'minlash, ularni kasb va chet tilga o'qitish, shuningdek, xavfsiz mehnat faoliyatini ta'minlash hamda qaytgan migrantlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

«Xalq so'zi».

Hukumat soati

TA'LIM SIFATI VA PEDAGOGLAR HIMOYASI – PARLAMENT NAZORATIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda maktab ta'limi sifati, inklyuziv muhitni rivojlantirish va pedagoglarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri E. Karimova deputatlarning savollariga javob berdi.

Vazirning ta'kidlashicha, o'tgan olti yilda mamlakatda ta'lim tizimining "lokomotiv" muassasalari sifatida 14 ta Prezident, 9 ta ijod hamda 203 ta ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilgan.

► 4

Munosabat

GLOBAL BOZORDAGI DADIL QADAM

Bugun mamlakatimiz iqtisodiy tarixida mutlaqo yangi sahifa ochilmoqda. Ilk bor O'zbekistonning milliy aktivlari xalqaro ommaviy savdoga chiqdi. "Franklin Templeton" bilan hamkorlikda O'zbekiston Milliy investitsiya jam'armasining aksiyalari bir vaqtning o'zida London fond birjasi va Toshkent Respublika fond birjasida ommaviy taklif jarayoniga chiqarilishi Yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining xalqaro e'tirofidir.

Avvalo, bir narsani alohida ta'kidlash kerak: xalqaro kapital bozori hech qachon ishonchsiz davlatga kirmaydi. Investorlar, ayniqsa, yirik global fondlar mamlakatning qonun ustuvorligiga, institutsional barqarorligiga, moliyaviy ochiqligi va islohotlarning qay darajada ortga qaytmas ekaniga qarab qaror qabul qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi ommaviy aksiyalar taklifi so'nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlarning amaliy natijasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimiz hajmi qariyb uch barobar o'sdi, davlat boshqaruvida samaradorlik

kuchaydi, xususiy mulk daxlsizligi va investorlar huquqlari bo'yicha kafolatlar mustahkamlandi. Natijada O'zbekiston xalqaro investorlar uchun yangi ishonchli bozor sifatida shakllana boshladi.

Eng muhimi, bu jarayonda dunyoning eng yirik investitsiya institutlari ishtirok etmoqda. "BlekRok", "Franklin Resurses", "Redvill" kabi moliyaviy gigantlarning O'zbekiston aktivlariga qiziqish bildirishi mamlakatimizga nisbatan xalqaro ishonch oshib borayotganining yaqqol dalilidir.

► 4

Senat qo'mitasida

«YOPIQLIK» SABABLARI MUHOKAMA QILINDI



Avvalroq 2025-yilning eng ochiq va eng yopiq davlat tashkilotlari reytingi e'lon qilingan edi. Unga ko'ra yuqori natijalarni "O'zbekgidroenergo", "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" hamda "O'zavtosanoat" qayd etgan. Umumiy reytingda eng yomon ko'rsatkichlarni esa Toshkent shahar va viloyat hokimligi, Andijon viloyati hokimligi, "O'zbekiston temir yo'llari", Sudyalar oliy kengashi, "Aloqabank" ATB egallagan.

Kecha Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasi majlisida "Ochiqlik indeksi" bo'yicha baholash natijalariga asosan "qizil" toifa deb topilgan Sudyalar oliy kengashining axboroti eshitildi.

Qayd etilganidek, ushbu indeks bo'yicha 2025-yilda 97 ta davlat organi va tashkilot faoliyati baholangan bo'lib, umumiy natijalarga ko'ra 66 ta tashkilot "yashil" (2024-yilda 50 ta), 22 tasi "sariq" (35 ta) va 9 tasi "qizil" (13 ta) toifa deb topilgan. 2022-yildagiga nisbatan "yashil" toifadagi idoralar soni 3,5 barobar oshgani mamlakatimizda ochiqlikni ta'minlash sohasidagi izchil islohotlarning samarasini yaqqol ko'rsatadi.

Biroq Sudyalar oliy kengashi 2025-yilda 48,75 ball to'plab, "qizil" toifaga kirib qolgani uchun kengashning ochiqlikni ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan majburiyatlariga rioya etishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlari va yo'l qo'yilgan kamchiliklari muhokama qilindi.

Unda Sudyalar oliy kengashi erishgan ijobiy natijalar bilan birga ochiqlikni ta'minlash sohasida o'z yechimini kutayotgan qator muammo va kamchiliklar ham mavjudligi qayd etilib, kelgusi faoliyatini yaxshilash borasida tavsiyalar berildi.

Majlis yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

«Xalq so'zi».

MILLAT



Sovet hokimiyatining Samarqanddan koʻzlagan maqsadi ancha ustakorlik bilan oʻylab topilgandi: mustabid ideologiya shahar xarobalari va oʻtmishini koʻz-koʻz qilish orqali dahriy hamda repressiv imperiyani Islom va Sharq madaniyati homiysi sifatida taqdim etish, undan umumtarix va qadriyatlar vitrinasini — multikulturalizm, yaʼni sovetcha tenglik hamda bagʻrikenglikni koʻrsatish uchun foydalanardi.

Mustaqillikdan keyin bu qadimiy kentga eʼtibor boshqa tomonga ogʻdi. Endi unga koʻproq oʻzlikni topish, ruhiyatdagi posttotalitar holatni deformatsiyalash uchun qoʻllaniladigan vosita oʻlaroq yondashila boshlandi. Toʻgʻri, ayni yangilanishlarni shunchaki formal oʻzgarishlar edi deyish adolatdan boʻlmaydi. Chunki obidalar, qadamjolar, meʼmoriy yodgorliklarni tiklash va obod qilish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Ammo bu harakatlar shaharning qadimiy shuhratini tiklash va eng muhimi, uning asiy ruhiyatini qayta uygʻotishdek qudratni namoyon eta olmadi.

Nega? Chunki istak va harakat qanchalik samimiy va koʻlamli boʻlmasin, ularda shaharning tarixiy xotirasi hamda mohiyatini toʻliq tiklash uchun zarur boʻlgan ichki mazmun va uygʻunlik yetishmadi. Joʻngina aytganda, shonli oʻtmishi, maʼnaviy identligi unga “tarix ikonasi” sifatida qarashdek uzoq yillar ongimizda shakllangan glamur tasavvurlar soyasida qoldi.

Aslida Samarqandni tushunish, jugʻrofiy ahamiyatini aniqlab olish oʻta muhim edi. Nimaga desangiz, bu koʻhna zamin faqat moziy osoriyatqalariga emas, balki uning bagʻrida ming yillardan buyon yashab kelayotgan xalq uchun ham vatan sanalardi. Buni toʻgʻri anglash uchun bizga xiyla uzoq vaqt kerak boʻladi.

Ayni masalada fikr yuritishni bir nafas kechiktirib, diqqatimizni bugungi kunlarga qaytarsak.

Oʻtayotgan oʻn yillik Samarqand hayotida yangi davrni boshlab berdi. Men bugungi maqolada ayni oʻzgarishlarni muassal sharhlash fikridan yiroqman. Zotan, shaharning hozirgi qiyofasi, u yerda olib borilgan bunyodkorliklar haqida hammamiz yaxshi bilamiz. Bir paytlar Sohbiqironning qudratli saltanatiga bosh kent boʻlgan, olamni oʻziga mahliyo aylagan, xorijiy sayyohlar va siyosatchilar qadami uzilmagan shahar bugun asl shavkatini tiklayotganini barchamiz sezib turibmiz. Hech mubolagʻasiz aytish mumkinki, uzoq tanaffusdan soʻng u yana dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari yigʻilib maslahatlashadigan xalqaro diplomatiya sahnasiga aylandi. Kelayotgan xorijlik mehmonlar, hatto sayyohlar ogʻzidan ham bir eʼtirofni koʻp eshitishtir mumkin bugun: “Samarqandga ertaklardagi, tarix kitoblaridagi jozibasi qaytibdi!”

Endi aytidg, odamlardagi taassurotni yangilash, zamonlar yuki monolitdek quyib qoʻygan stereotiplarni parchalash oʻz-oʻzidan boʻladi deb oʻylaysizmi?! Iddaoimiz bekorga emas. Zotan, shaharning koʻrk-u tarovati faqat besh-oʻnta meʼmoriy yodgorlik bilan oʻlchanmaydi. Qolaversa, “oʻtmish ruhi” tasavvuri chechan gʻdlamlarni maroqli hikoyalari orqali toʻliq shakllanadi deb qarash ham unchalik toʻgʻri emas.

Qadim tarovatni uygʻotish faqat bir amal — koʻhna devorlar, tuproqlar qaʼrida koʻmilib yotgan madaniy ohanglargaagina tan. Ularni harakatga keltirish uchun esa tarixiy-ruhiy hayot qatlamini qayta koʻrib chiqish talab etilardi. Yaʼni nafaqat shahar, balki butun yon-atrofdagi madaniy hayotni tubdan oʻzgartirish, ilmiy tilida aytganda, jamiyat hayotini desovetizatsiya — mustamlakachilikning barcha meroslaridan tozalashni nazarda tutardi. Oʻz-oʻzidan ravshanlik, bu katta masshtabdagi yumush edi. Shu maʼnoda aytadigan boʻlsak, Samarqandning qayta “oyoqqa turishi” oson kechdi degan odam adashadi.

2001 — 2003-yillarda shu yoʻldagi mashaqqatli mehnatni men oʻz koʻzim bilan koʻrganman. Aynan oʻsha yillari Shavkat Miromonovich Jizzaxdan bir yerga ishga oʻtgan va ayni masʼuliyatning ogʻir yuki u kishining yelkasiga tushgandi. Bugun baʼzi davrlarda ham hayrat, ham taajjub bilan “Yangi hokim ish boshlagan kezlarda idora hududidan falon mashina chiqindi olib chiqqan ekan” degan gaplar ham ayni davrlarga tegishli. Eshitgan quloqqa garchi lofga oʻxshab tuyulsa-da, haqiqatan ham, shunday boʻlgan. Boʻlganda ham, u kishi masalaga kechiktirib boʻlmas, eng muhim yumushdek yondashgani hozirgidek yodimda. Oʻshanda mening ham “Shuncha ish turib, faoliyatni nega bundan boshladi?” deya ajablangan vaqtim ham boʻlgan. Ammo keyin tushundim. Anglaganim shuki, bu hodisa nafaqat obodonchilik harakati, balki uzoq yillar esdan chiqqan, tuzumlar va siyosatlar nazaridan chetda qolgan, baʼzan esa takabburlik bilan koʻzga ilmay qaralgan ruhiy yangilanish sari solingan bir yoʻl ekan.

Ayni mulohazalarni qatʼiy aytishimning boisi bor, albatta. Chunki Shavkat Miromonovich Toshkent va Jizzaxda boʻlgani kabi bu yerda ham ishni ozodalik va sarishtalikdan boshlagan edi. Esimda, butun viloyat boʻylab boshlangan obodonlashtirish ishlari nafaqat hududlarni, balki odamlar koʻnglini ham yoritib yuborgandi oʻsha kezlarda. Mavzu kontekstidan kelib chiqib masalaga falsafiyroq yondashadigan boʻlsak, ayni oʻrinda koʻzdan panada qolayotgan majoziy maʼnoni ilgʻishimiz mumkin: Shavkat Mirziyoyev ushbu ishga jazm qilar ekan, haqli maʼnoda afsona-yu rivoyatlar, zafar va gʻalabalar shavqi, shon-u shavkati choʻkib yotgan qadimiy va buyuk shahar bagʻrini ham qora oʻtmish gʻuborlaridan poklayotgandek edi.



Qudratilla RAFIQOV,
siyosatshunos.

Darhaqiqat, Samarqandning maʼnaviy qiyofasi, ruhiyatidagi yuksalish aynan shunday boshlangandi, desam, hech ham adashmagan boʻlaman. Zotan, har qanday buyuk ishlar, ulugʻvorlik poklik poydevori ustiga quriladi.

Baʼzi davlatlarga safar qilgan odamlarning “aeroportdanoq yomon hiddan nafasim boʻgʻilib qoldi, koʻchalardagi axlat uyumlarini koʻrib, koʻnglim aynidi, kayfiyatim buzildi” deganga oʻxshash hikoyalarni koʻp bor eshitgan boʻlishingiz mumkin. Ha, aslida bepisand qaraydiganimiz ozodalik shunchaki “roʻzgʻorboʻp” tushuncha emas, u ruhiyat koʻzgusi, ichki madaniyat ifodasidir.

Aslini olganda, Shavkat Mirziyoyev siyosiy yoʻnalishida men ayni ustuvorlikni bundan ancha ilgari, ayni tanigan yillarimdayoq sezganman. Oʻtgan asrning 80-yillari oxirlari, 90-yillari boshida mamlakat siyosiy maydonida paydo boʻlgan yosh yigit harakatchanligi, chechanligi bilan tezda koʻpchilikning eʼtiboriga tushgandi. Oʻrni kelganda bir mushohadam bilan oʻrtoqlashib oʻtishim zarur, deb oʻylayman. Oʻqiganlarim va hayot tajribamga tayanib aniq ayta olamanki, bu dunyoda tasodiflar yoʻq. Fikrimni yanada ochiqroq bildiradigan boʻlsam, buyuk shaxsiyatlar oʻzlari haqida birinchi qadamlaridanoq ishora berishadi...

Xalqimizda “Yaratganning nazari tushmasa...” degan magʻzi toʻq hikmat bor. Asrlar davomida oʻz mohiyatini yoʻqotmagan, ota-bobolarimizning falsafadagi determinizim tushunchasiga uyqash ushbu “xulosa”si, haqiqatan ham, biz odatda tasodif yoki omad deya taʼriflaydigan voqealar zamirida inson anglab yetmaydigan qonuniyatlar borligini esga solib turadi.

“Yuragi Vatan va xalq dardi, mehr-u muhabbati bilan urib turadigan, oʻz surati va siyratida MILLAT SHAVKATI timsolini tobora yorqin ifoda etib borayotgan Shavkat Mirziyoyevdan biz, kelajak avlod, qolaversa, tarix hali koʻp narsani oʻrganishi, saboq chiqarishiga oʻzida kuchli ehtiyoj sezishiga men aniq ishonaman.”

Boʻlmasa aytimg, Jizzaxning olis bir qishlogʻida oʻsgan yoshgina yigit Oliy sovetga deputat, poytaxtning markaziy rayonlaridan biriga hokim boʻladi deb kim oʻylagan oʻsha damlar?! Holbuki, sovet va undan keyingi dastlabki davrlarda ham “shaharga faqat shaharliklar” deganga oʻxshash mutlaqo asossiz, yozilmagan qoida hukmron edi.

Mayli, rasamadi bilan quyiroqda hali bunga vaqt ajratamiz. Aslida bosh mavzumiz Samarqand, Shavkat Mirziyoyevning ayni viloyatdagi faoliyati toʻgʻrisida edi. Biroq gapning oʻzani sal naribroqqa, u kishi ijtimoiy-siyosiy hayotga kirib kelgan ilk damlarga burilib ketdi. Ehtimol, bunda ham bir hikmat bordir. Zero, mohiyatni anglash uchun, avvalo, uning zamiriga nazar tashlash lozim deyishadi-ku, ulugʻlarimiz.



Favqulodda qobiliyatli odamlarga yashash va ishlash hamma zamonlarda ham oson kechmagan. Masalan, gʻayrat-shijoati, dunyoqarashi va gʻoyalari jamiyatdagi anʼanaviy tushunchalardan farq qiladigan, olmon faylasufi Immanuel Kant taʼbiri bilan aytganda, odatdagidan ilgʻorroq “aqi” atrofni ilhomlantirish bilan birga tevarakdagilarda yetaricha xavotir ham uygʻotishi mutlaqo bor gap. Bunga tarixiy-siyosiy adabiyotlarning koʻp misollar keltirish mumkin. Biroq omadim shundaki, ayni hodisani men kitob yoki arxiv hujjatlarida emas, oʻz hayotimda koʻrganman.

U kishini hali institutda ishlayotgan kezaridanoq bilardim. Chunki “gorkom”dagi ish faoliyatim avvaliga aynan fan va oʻquv muassasalari, keyin ham shunga yaqin — mafkuraviy yoʻnalish bilan bogʻliq edi. Ochiq aytaman, oʻsha kezar harakatchan, koʻzidan oʻr chaqnaib turadigan, oʻta tarbiyali va yoshiga nisbatan xiyla mulohazali bu yigitga ortiqcha eʼtibor bermaganman. Nazdimda, u oddiy bir oliy oʻquv yurtining ilmiy xodimi, nari borsa, navqiron pedagog-ziyoli edi. Uning men, qolaversa, shahar jamoatchiligi va yuqori eiltaning

tasavvurlarini toʻzgʻitib yuborgan, umumsiyosat sahnasida Shavkat Miromonovich degan har tomonlama hurmat-eʼtiborga sazovor ism-sharif bilan hisoblashishga majbur qilgan davri 90-yillar boshiga toʻgʻri keladi.

Oʻshanda Mixail Gorbachyovning hamma yoqni ostin-ustun qilgan “qayta qurish va oshkoralik” zamonlarining soʻnggi yillari, olatasir, birov birovni eshitmaydigan, hamma gapiradigan davrlar edi. Aynan oʻsha yili Respublika oliy soveti deputatligiga saylovlar boʻlib oʻtadi. Endigina 33 yoshga kirgan, poytaxt hayoti, hokimiyatning shafqatsiz “oʻyinlari”ni hali ich-ichidan bilmagan yoshgina yigit oʻz nomzodini xalq vakilligiga qoʻyadi.

Shundaygina koʻz yugurtirib oʻqiganda silliq oʻtib ketadigan bu gaplar juda murakkab vaziyatni ifoda etadi, aslida. Chunki nomzodlar ancha nomdor, tajribali, bundan-da muhimrogʻi, hukmron siyosiy ayonlarga yaqinroq (ochiq aytganda, u kishidan boʻlak bari “tanlangan”lar) edi. Keling, daʼvomis asossiz boʻlmasligi uchun oʻsha yili Shavkat Miromonovich bilan “siyosiy marafon”ga kirgan faollar nomini sanaymiz. Shu oʻrinda eslatib oʻtay, asosiy saylovga kirguncha talabgorlar sakkiz kishi boʻlgan. Chigʻiriqdan esa uch kishi oʻtadi. Bular oʻsha yillardagi Toshkent militsiya oliy maktabi (hozirgi IIV akademiyasi) rahbari Nikolay Ivanovich Ojiganov, Oʻrta Osiyo irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti (maʼlumot uchun aytay, oʻsha vaqtlarda bu dargoh nafaqat mintaqada, balki butun ittifoqda ilmiy-amaliy salmoqqa ega edi) direktori Viktor Abramovich Duxovniy...

Tabiiyki, bular orasiga mahalliy miqyosdagi institut oʻqituvchisi, buning ustiga “yuqori” hali yetarlicha bilmagan yosh yigitning qoʻshilib qolishi koʻpchilikni ajablantirdi. Baʼzilar buni shunchaki rasmiyatchilik uchun qoʻyilgan qadam deb oʻylagan boʻlsa, birovlar kibrini ochiqcha koʻrsatib, mugʻombirona jilmaydi: “Kecha qishloqdan kelgan bolaga bunday jiddiy tadbirida nima bor ekan?”

Eʼtirof etish kerak, ularda idaoosida jon bordек edi. Nega desangiz, nomzodlari qoʻyilganlar orasidagi Ojiganov huquq-tartibot, qolaversa, respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida ancha eʼtiborga ega odam edi. Duxovniy esa, boya qavs ichida alohida atay izoh berganimdek, nafaqat Oʻzbekiston, balki ittifoq miqyosida katta qudratga doxil ayon oʻlaroq mutlaq gʻoliblikka haqlidek tasavvur uygʻotardi. Chunki uning qoʻlida muhim dastak — irrigatsiya va suv masalalarini jamlangandi.

Yaxshi bilasiz, oʻsha davrlar butunlay agrar tarmoqqa oʻtirtgʻizilgan, “kindigi bir” mintaqqa respublikalar uchun bu soha haqiqiy masalasi edi, goʻyo. Shuning uchun Duxovniy egallagan martaba taʼsiri nafaqat Lenin (bugungi Mastaqillik) maydoni biqinidagi SK (Sentralnyy Komitet — Markaziy Qoʻmita) binosining serhasham hujralarida, balki bizga koʻshnli boʻlgan barcha respublikalarni “mahv” etib, Shimolda joylashgan “markaz”ning qirizmi gumbazli saroylarida ham tantanali tarzda aks sado berib turardi. Shu sabab saylovchilar uchun ham,

hokim boʻlishida ham bu sezilgan.

Masalaga kengroq yondashganda, aslida xalq tilida soddagina qilib “mahalliychilik” deyiladigan, ammo jiddiyroq qarasangiz, qaysidir maʼnoda ijtimoiy diskriminatsiyaga ham oʻxshab ketadigan bu xavfli qusur nafaqat Toshkent, balki umumjamiyatimizga xos xavfli illat edi. Oddiy tushuntirganda, Qashqadaryoga qashqadaryolik, Buxoroga buxorolik, Namanganga faqat Namangandan chiqqan kadrgina rahbar boʻlishga munosib degan xalqni boʻlib tashlashga, birlik va yakkidlikka raxna soluvchi qarash edi bu.

Men aniq bilmayman, bunday radikal kayfiyat, qarash bizda qachon paydo boʻlgan?... Ehtimol, uning shakllanishi oʻtgan asr boshlariga borib taqalar. Bilamdim. Har qalay, kommunistlarning oʻsha yillari “milliy respublikalar va millatlarni “yaratish” siyosati” oldin na etnik va na hududiy ixtiloflarga borgan turkistonliklar oʻrtasida oʻziga xos ayirmachilikni keltirib chiqargani bor gap. Tabiiyki, boʻlib tashlab boshqarish ularning manfaatiga mos edi. Jumladan, oʻlkadagi milliy kelishmovchiliklar — hudud va madaniy meros, etnos yoki etnogenez atrofidagi “gʻijillashish”lar pinhona davom etarkan, bundan “markaz” atay koʻz yumardi. Chunki hamjihatlik va ruhiy yaqinlikning yoʻqligi mintaqaga doimiy ojizlik baxsh etib turishini ular yaxshi tushunishardi. Biroq sovetlardan oʻzlashtirilgan salbiy tajriba, “boʻlib tashlab idora qilish siyosati”, garchi zararimizga boʻlsa-da, bizda kechagacha davom etdi. Xususan, mustaqillikdan keyin ham viloyatlar va hatto tumanlarni bir-biridan ajratib turadigan “blok post”lar qoʻyilganini nima bilan izohlash mumkin. Ammo Shavkat Miromonovichning poytaxtda muhim siyosiy personga aylanishi masalasi, yuqorida ishora qilganimizdek, bundan ham jiddiyroq oqibatlarini keltirib chiqargan, dangal aytganda, koʻplab oʻzini eng muhim ayon deb hisoblovchi mahalliy “zodagon”larni bezovta qilgandi. Albatta, uzoq davrlardan beri bir maromda ketayotgan “ish”lar dinamikasi birdan oʻzgarsa, tabiiy ravishda xotirjamlik yoʻqoladi. Bu behalovatlikning qat-qatida hasad ham bor edi. Biroq men buni katta ayb sifatida qoralamayman. Zotan, hasad ham nafsaga bogʻliq. Nafs esa hammamizda bor.

Hatto bashariyat daholari, deb ardoqlaydigan buyuklarga ham hasad boʻlgan. Masalan, nainki rus xalqining, balki insoniyat oliy tafakkurining daholaridan biri Lev Tolstoy oʻz zamondoshi buyuk adib Fyodor Dostoyevskiyni kunlagani (mavqe qizgʻanish, rashk qilish) haqida koʻp xotiralar bor. Deylik, u koʻp maqolalarida Dostoyevskiyni “tilning rasvosini chiqargan”likda ayblaydi. Bundan ham achchiqrogʻi, Maksim Gorkiy xotiralarida keladi. Unda Tolstoy shunday deydi: “Dostoyevskiy oʻzining jinni qahramonlaridan birini oʻzi ishonmagan maqsadga xizmat qilgani uchun, oʻzidan va boshqalardan oʻchini olish uchun yashaydi deb yozadi. Bu gapni u oʻz haqida yozgan, u oʻzi haqida xuddi shunday deyishi mumkin edi...”

Xullas, hasad masalasi umuminsoniy, tabaqalarga boʻlinmagan bir tuygʻu deyishimiz mumkin. Qolaversa, bu yuqorida aytganimdek, unchalik kechirilamaydigan qusur ham emas. Ammo ochiq dushmanlik bu noinsoniylik belgisi. Shavkat Miromonovich Mirzo Ulugʻbek tumaniga hokim boʻlganida bunday nomdalaricha qilingan harakatlar, dushmanona fitnalarga koʻp bor roʻbaroʻ kelgandi (Oʻsha paytlari shaharning Sobir Rahimov tumanida hokim boʻlganim uchun bu voqealardan yaxshi xabardor edim).

Xalq orasida ancha ommalashib ketgan, u kishining oʻzlari ham bir necha bor kulib eslagan “Ulugʻbek haykali” haqidagi hangoma shulardan bittasi xolos. Aslida kimning “ljod” boʻlsa ham, bu oʻta puxtalik bilan oʻylangan ish edi. Ertalab davlat rahbari xorijlik mehmon bilan birga gulchambar qoʻyishi kerak boʻlgan monumentning boshini olib ketish... Chuqurroq oʻylasangiz, ayni buzgʻunchilik tashabbuskorlari topilmalari zamiriga “siyosiy majoz”ni ustakorlik bilan berkitishgan: Mirzo Ulugʻbek boshining kesilishi aslida shaxsan Shavkat Mirziyoyev siyosiy faoliyatiga qilich sermash edi...

Albatta, shuncha gapdan keyin haqli bir savol oʻrtaga chiqadi: Mirziyoyevga qilingan kinli munosabatning boisi nima edi, uning viloyatdan ekanimi?! Yoʻq, bu yerda, hali aytganimdek, undan-da jiddiyroq sabab ham bor edi. Motiv shundayki, poytaxtning Mirzo Ulugʻbek tumaniga tayinlangan yosh hokim shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini oʻz gʻayrati, bilim va iqtidori, noyob qobiliyati bilan favqulodda “uygʻotib” yuborgan va bu koʻpchilikni sergak torttirgandi. Bugun aksariyat toshkentlik faollar, oʻsha mahallalar faoliyati shahar hayoti bilan bogʻliq boʻlgan, yuragi toza, vijdoni uygʻoq faxriyrlar madaniyat, orastalik, saranjomiy va bunyodkorlik zavqi bilan ishlash va yashash borasidagi koʻp tajribalarni aynan Shavkat Mirziyoyevdan oʻrganishganini ochiq tan olishadi, eʼtirof etishadi. Sababi mahalla va koʻchalar, xyobonlar goʻzalligi, odamlarni ulugʻ maqsadlar sari birlashtira olish bobida ushbu tuman nafaqat Toshkentda, balki mamlakatda eng oldingi safda edi.



Oʻzi umuman bugungi aytmoqchi boʻlgan gapimiz Samarqand va Samarqand ruhiga qayta “jon bagʻishlanishi” haqida edi. Lekin u yerdagi qilingan ishlar, Shavkat Mirziyoyevning qalbidagi jasorat, Vatanimizga, tariximiz va millatimizga soʻngsiz mehr-muhabbatni ochib berish uchun yuqoridagi hikoyalarni ham aytib oʻtish kerak edi deb oʻyladim. Zotan, u kishining shaxsiyati oʻz-oʻzidan

osmondan tushgandek paydo boʻlib qolgani yoʻq. U bugungi mavqei — xalqning sevimli Prezidentiga aylanguncha qancha zahmat chekdi, ne-ne balo-qazolardan omon chiqqa oldi. Bu Yaratganning biz uchun buyuk bir tuhfasi, albatta.

Endi asosiy mavzu — Prezidentimizning Samarqandda amalga oshirgan ishlari, u yerdagi faoliyati haqida bafurja gaplashsak. Negaki, u kishining ayni shu viloyatdagi faoliyati, tajribasi mamlakatimizning bugungi istiqboliga tagzamin boʻldi, desam, adashmagan boʻlaman.



Oʻrta asrlarda “Gʻarbda Rim, Sharqda Samarqand” degan taʼrif paydo boʻlganini hammamiz yaxshi bilamiz, bundan faxrlanib yuramiz. Ammo yuqorida aytib oʻtganimizdek, bu qadimiy kent ham xuddi inson taqdiridek murakkab yoʻlni kechib oʻtgan.

Bir misol, garchi 2001-yilda Samarqandning meʼmoriy-tarixiy yodgorliklari YUNESKOning Jahon merosi roʻyxatiga kiritilgan shaharning xalqaro maqomini yana bir bor tasdiqlagan boʻlsa-da, oʻsha davrdagi real manzara uning shuhratiga soya solib turar, xalqaro tashkilotning eʼtirofi esa shunchaki uning yoshi va shonli oʻtmishiga koʻrsatilgan hurmat ramzidek taassurot qoldiradi. Infratuzilmani qoʻyb turaylik, oddiygina maishiy madaniyat degan match ham shahar hayotiga begonadek edi.

Viloyat iqtisodiyoti ham xuddi shunday ogʻir ahvol — tanazzulda edi. Sanoat va tadbirkorlik rivojlanmagan, qishloq xoʻjaligida yillar davomida yigʻilgan muammolar anʼanaviy tus olgandi. Eng achinarlisi, 4 millionga yaqin aholining atigi 7 foizi tadbirkorlik bilan shugʻullanardi. Va ayni koʻrsatkich, taassufki, hudud iqtisodiyotining ichki imkoniyatlari toʻliq ishora solinmaganidan, aholining tadbirkorlik va biznes rivojiga ishonchi soʻnganidan ham darak berardi.

Ana shunday murakkab bir pallada Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati hokimi etib tayinlandi. U oʻsha paytdayoq yaxshi anglagan ediki, bu nafaqat taqdirning siylovi, balki viloyatda olis davrlardan toʻplanib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy “meros” qarshisidagi sinov ham edi. Shu sabab u koʻpchilikka oʻxshab ishni kabinetdagi majlislar yoki “telefon boshqaruvi” amaliyotlaridan emas, toʻgʻridan toʻgʻri odamlar orasiga kirishdan boshladi.

Tushunmovchilik boʻlmagligi uchun bir gapni aytib oʻtay. U kishining ishlari, faoliyatini xuddi yonida turgandek hikoya qilishimning sababi bor. Chunki Shavkat Miromonovich viloyatga tayinlangan ilk damlar va undan keyin ham men deyarli doimo yonlarida hamnafas boʻlganman. Shuning uchun aniq eslayman, yangi rahbar ilk ish ishini Samarqand xalqaro aeroportidagi holatni koʻzdan kechirishdan boshladi (ehtimol, bugun shahar koʻrkiga koʻrk qoʻshib turgan yangi aeroport qurilishi shu mahallar u kishining koʻnglidan oʻtgandir). Oʻshanda bir guruh faollar hamrohligida yoʻl-yoʻlakay koʻchama-koʻcha, mahallama-mahalla piyoda aylanib, hududning haqiqiy ahvoli, odamlarning kundalik dard-u tashvishlarini bevosita sinchiklab oʻrgandi.

Natijada shahardagi koʻp yillik loqaydlik va eʼtiborsizlik oqibatida yigʻilib qolgan turli muammolar birma-bir yuzaga qalqib chiqdi. Ayniqsa, viloyatning ogʻir ekologik holati, koʻchalar, mahallalar va jamoat joylarida uyulib qolgan chiqindilar Samarqandni tozalash va obod qilish ishlarini biror kun ham kechiktirib boʻlmaydigan vazifaga aylantirgandi. Mubolagʻasiz aytganda, ahvol, boya oʻzim soʻzim davomida shahar gigiyenasi bobida kesatgan, tanishlarimiz safar taassurotlaridagi mamlakatlarnikidan pesh emasdi. Shu boisi bu borada jiddiy “kurash” boshlandi. Bugun obodlik va ozodalik bobida ibrat namunasiaga aylanib ketgan hodisa — birgina viloyat hokimligi va uning atrofidan qariyb 70 ta yuk mashinasida chiqindi olib chiqilgani vaziyatning nechogʻli ayanchli tus olganini tasdiqlab turardi.

Bu hali hammasi emas edi. Ahvol shu darajaga yetib borgandiki, mavjud kuch va texnika bunday keng koʻlamli obodonlashtirish ishlari, qolaversa, maqsadni toʻliq amalga oshirish uchun yetarli emasligi ayon boʻldi. Ana shunda shahar hududi sektorlarga boʻlinib, har bir mahalla va koʻchaga aniq masʼullar birkiritildi. Keyinchalik butun mamlakat miqyosida joriy etilgan “Sektor tizimi”ning dastlabki namunasi aynan shu jarayonda shakllandi.

Xullas, yillar davomida qoʻqim (chiqindi) bosib ketgan koʻchalar va mahallalar qisqa vaqt ichida yangicha qiyofa kasb eta boshladi. Eng muhimi, oʻzgarishlar faqat markaziy koʻchalar yoki viloyat markazi bilan cheklanib qolmadi. Ilgari hech bir rahbar qadam bismagan chekka hududlar, eʼtibordan panada qolgan mahallalar ham yangilanish jarayoniga “tortildi”.

Koʻpchilik yaxshi biladi, shahar biqinidagi Fidoiyalar va Sarbadorlar kabi mahallalarda azaldan shu yerlik aholi koʻlilar” deb ataydigan yurtdoshlarimiz istiqomat qilishadi. Garchi mavzudan chiqsam-da, gapim tushunmovchiliklar keltirib chiqarmasligi uchun ochiq aytib qoʻyay: tashqaridan qaraganda, insonga nisbatan goʻyo kamsitish yoki milliy ayirmachilikka oʻxshab tuyuladigan taʼrif aholi orasidagi mutlaqo hayotiy munosabat aslida. Chunki xalqimiz biror ijtimoiy jamoaning “kim”ligini ifodalash uchun “qozoq”, “qirgʻiz”, “tojik” yoki yanada tradisional qatlama oʻtadigan boʻlsak, “qoʻngʻirotlar”, “barloslar” degan etnik tushunchalarni bajonidil qoʻllashadi va bu ayb ham, haqorat ham hisoblanmaydi. Ayni konseptdan

SHAVKATI

kelib chiqsak, loʻlilar ham hammamiz qatori shu yurtning aziz farzandlari sanalishadi. Shu oʻrinda men aytmochki boʻlgan fikr bu mulohazalardan anchagina farqli, yaʼni Shavkat Miromonovichning insonparvarligi, odamlarga boʻlgan yuksak hurmati, mehri bilan bogʻliq masaladir. Samarqandni bilgan odamlar yaxshi xabardor, bu mahallalarda yashovchi aholida shu paytgacha na tugʻilganlik haqida guvohnoma, na pasport boʻlgan. Ochiqiʻ, ushbu amaliyotni amalga oshirish haqida kimdir oʻylab koʻrganiga ham shubha bor. Shavkat Mirziyoyev esa ularga qonuniy tarzda shaxs, yashash va mol-mulk huquqini beruvchi guvohnoma hamda pasport berish tizimini yoʻlga qoʻydi. Ushbu yurtdoshlarimiz ham Vatanimizning chin fuqarolari boʻlish sharafiga muayassar boʻlishdi. Mahallaning maktab ostonasini koʻrmagan bolalari ilm dargohlariga jalb qilindi. Aholining idorama-idora yurib sarson boʻlishiga sabab boʻlgan ogʻriqli muammolari yugur-yugursiz aynan shu yerning oʻzida hal etildi.

Bir soʻz bilan aytganda, odamlarning dardini eshitish, muammoni joyida hal qilish, eng muhimi, “Davlat — xalq uchun” degan ezgu tamoyil ana shu davr boshqaruvining asosiy mezoniga aylangandi.

VI

Eslatib oʻtganimizdek, Samarqand faqat “Samarqand”dangina iborat emas. Ushbu toponim faqatgina meʼmoriy artefakt yoki madaniy merosdan tashqari, shu diyorda ming yillardan buyon yashab kelayotgan millionlab odamlar — samarqandliklar va ularning hayotini ham ifoda etadi. Shundan kelib chiqib gapiradigan boʻlsak, viloyat maʼmurchiligi haqida ham alohida toʻxtalish kerakligini anglab yetamiz. Chunki koʻhna shaharga nur va shukuh beradigan eng muhim sifat — xalqning kayfiyati, turish-turmushidan roziliklari oʻlomat boʻlgan koʻzlaridagi quvonch va shodlik uchqunlaridir. Ayni nuqtai nazardan olib qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish ham oʻta dolzarb, ortga surib boʻlmaydigan vazifa edi viloyatda. Nimagaki, hududdagi oʻlida-joʻldalik, samarasiz qaror va topsiqliqlar, tashabbuslar odamlarni ishdan bezdirgan, davlat va umumsiyosatga ishonchini susaytirgandi. Shavkat Mirziyoyev kelganidan taxminan bir yil oʻtib, aniqrogʻi, 2002-yilning birinchi choragida viloyat iqtisodiyotida keskin ijobiy oʻzgarishlar koʻzga tashladi: sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 107,3 foizga, xalq isteʼmoli mollari esa 112 foizga bajarilib, barqaror oʻsish surʼatlari qayd etildi. Albatta, bu natija ortida odamlarning qayta uygʻongan ishonchi, boshqaruvga nisbatan tiklanayotgan umidi yotardi. Biroq viloyatning asosiy drayveri boʻlgan qishloq xoʻjaligidagi ahvol hamon murakkab edi: yer unumdorligi, yaʼni bonitet darajasi keskin pasayib, ayrim hududlarda 10 ballgacha tushib ketgani hosildorlikka keskin taʼsir koʻrsatgandi.

Ayni vaziyatdan chiqish uchun Shavkat Mirziyoyev masalaga ilmiy va amaliy nuqtai nazardan yondashdi. U kishining tashabbusi bilan koʻpni koʻrgan oqsoqollar, chuqur bilim va tajribaga ega mutaxassislar hamda dehqonlardan iborat “Maslahat kengashlari” tuzildi.

Tashqaridan qaraganda ortiqcha davoruqsiz bu tashabbus viloyat hayotida tub burilish yasadi. Negaki, xalq tajribasi va koʻmagiga asoslangan ayni tuzilma davlat bilan xalq oʻrtasida uzilgan rishtalarni tikladi. Boshqachaga aytganda, ushbu mexanizm yerga boʻlgan munosabatni qayta koʻrib chiqish, mavjud muammolarni joyida tahlil qilish va aniq yechimlar ishlab chiqishda muhim omil boʻldi. Shu yondashuv orqali yer unumdorligini tiklash ilmiy hisob-kitoblar va amaliyot uygʻunligida hal etila boshladi.

Mavjud imkoniyatlarni toʻliq safarbar qilish natijasida har gektar suvli yerga 20,5 tonnadan mahalliy oʻgʻit berish tizimi yoʻlga qoʻyildi. Oradan qisqa vaqt oʻtgach bu ishlarning ijobiy samaralari yaqqol koʻrina boshladi — tuproqning biologik holati yaxshilani, yerning tabiiy unumdorligi asta-sekin tiklandi.

Islohotlarning navbatdagi bosqichida hududlarning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni ixtisoslashtirish masalasiga alohida eʼtibor qaratildi. Bu esa, oʻz navbatida, har bir tumaning oʻziga xos salohiyatini ochildish va qishloq xoʻjaligi samaradorligini oshirishda muhim strategik qadam boʻlib xizmat qildi.

Jumladan, Toyloq tumani gʻallachilikka ixtisoslashtirilib, shaxsan viloyat rahbarining tashabbusi va qoʻllab-quvvatlovi bilan Ukrainadan serhosil bugʻdoy urugʻlari olib kelindi hamda sinovdan oʻtkazildi. Natijada gektaridan oʻrtacha 50 sentnergacha hosil olinishiga erishildi.

Samarqand tumanida ilgari eʼtibordan chetda qolgan toshloq va unumsiz yerlar oʻrinda zamonaviy intensiv bogʻlar barpo etildi. Bu tashabbus hudud qiyofasini oʻzgartiribgina qolmay, qishloq xoʻjaligida qoʻshilgan qiymatni ham sezilarli darajada oshirdi.

Ishitxon va boshqa tumanlarda mahsulotlarni saqlash hamda bozorga uzluksiz yetkazishni taʼminlash maqsadida zamonaviy muzlatkichli omborxonalar qurildi. Bu esa sarxil mahsulotlar yoʻqotilishini kamaytirib, fermerlar daromadini oshirishga xizmat qildi.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan oʻsha yillarda qishloq xoʻjaligida asos solingan tizimlari yondashuv keyinchalik viloyat agrar tarmogʻining muvaffaqiyat garoviga aylandi, desam, ayni haqiqatni aytgan boʻlaman. Zero, bir vaqtlar qatqaloq yerga aylangan, hosildorligi past dalalarning yashil boqqa doʻnishi, bu shunchaki agrotexnik tadbirlar samarasi emas, balki

dehqon va fermerlar koʻngliga yoʻl topishning oʻziga xos ifodasi boʻldi.

Aytilish oʻrinliki, ushbu islohotlar doirasida yana bir ogʻriqli muammo — hududlarni obihayot bilan taʼminlash masalasi ham kun tartibiga chiqdi. Sir emas, bir vaqtlar Qoʻshrabot tumanidagi minglab gektar yer maydonlarining “taqdiri” butunlay yogʻingarchilikka bogʻliq edi. Hatto ayrim vaqtlarda lalmikor yerlar suvsizligidan qaqrab, tuproq yorilib ketar, dehqonning mashaqqatli mehnati behuda sarf boʻlganini koʻrib, odamning beixtiroy ichi achirdi. Ammo oldingi rahbarlarda ham shunday kuyinish tuygʻusi boʻlganmi, yoʻqmi, buni bilmadim-u, yangi hokim buni koʻrib chidab turolmagani bor gap. Aynan oʻsha yillari Shavkat Mirziyoyevning qatʼiy irodasi va uzoqni koʻzlab yuritgan siyosati tufayli hududda sel suvlari toʻplanadigan “Oqchopsoy” suv omboriga tamal toshi qoʻyildi. Shu bilan birga, tabiiy manbalar va mavsumiy sel suvlaridan oqilona foydalanish maqsadida “Oqtepasoʻy” suv omborini qurib etish gʻoyasi ham ilgari surildi. Ushbu tashabbuslar minglab gektar lalmikor yerlarni obihayot bilan taʼminlash, unumdorligini oshirish va hudud qiyofasini tubdan oʻzgartirishga qaratilgan muhim strategik qadam sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

VII

Azal-azaldan suv baraka va farovonlik ramzi sifatida eʼzozlanib kelingan. Ehtimol shu bois xalqimiz u bilan bogʻliq koʻplab ibratli rivoyatlar toʻqigan, buloq va chashmalarga muqaddasot sifatida taʼrif bergan. Shuning uchun ham Samarqand viloyati ahlining Sangin-Chashmasiyob, Sangarason-Navodon, Obirahmat, Obimashat kabi buloqlar va jilgʻalarning zilol suvlaridan bahra olgan inson “gunohlaridan poklanadi” degan mulohazalariga hech kim shubha bilan qaramaydi, balki oqayotgan suvdan qonib ichishga intiladi.

Ammo, ming afsuski, oʻz vaqtida mahalliy siyosatda tarixiy va odamlar aziz bilgan bunday buloqlarni asrab qolish u yoqda tursin, shahar aholisini oddiy ichimlik suv bilan taʼminlash ham eng ogʻriqli muammoga aylandi.

Yillar davomida eʼtibordan chetda qolgan suv quvurlari chirib, xizmat muddatini oʻtab boʻlgan, ularni zudlik bilan yangilash ham dolzarb ahamiyat kasb etgandi. Qolaversa, shaharda aholi nufusi kun sayin oʻsib, mavjud imkoniyatlar odamlar ehtiyojini qoplay olmay qolgandi. Viloyatning yangi rahbari obihayot taʼminoti tizimini isloh qilish, koʻhna kentning “qon tomlari”ga qayta jon bagʻishlash yoʻlida ham qatʼiy qadamlar tashladi — aholi toza ichimlik suvidan muammosiz bahramand boʻla boshladi.

Bundan tashqari, toza ichimlik suvini 3-4 kilometr masofadan tashib ichgan Nurobod tumanidagi Sazagʻon, Tapaqul va Oqsoy qishloqlari aholisiga

“Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati rahbari sifatidagi faoliyati davrida asos solingan maʼnaviy uygʻonish keyinchalik butun mamlakat taqdiri va taraqqiyot yoʻlini belgilab bergan ulkan strategik islohotlar uchun mustahkam asos boʻldi. Muhimi, bu oʻzgarishlar quruq shior yoki balandparvoz daʼvatlar sifatida emas, balki xalqimiz tafakkuri va qarashlarini oʻzgartirgan islohot sifatida ularning hayotiga chuqur kirib bordi.”

yangi suv quduqlari qazilib, ularning obihayotga talabi va ehtiyoji qondirildi. Bu jarayon oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra, viloyat ahlining turmush farovonligini yuksaltirish, inson qadriini ulugʻlash va odamlarning yuziga tabassum ulashish yoʻlidagi muhim islohotlardan biri boʻldi.

VIII

Hammamizga maʼlum, Shavkat Mirziyoyev Samarqandda koʻp muddat qolmadi: umumiy hisobda ikki-uch yil. Biroq u kishi qoldirgan iz, anʼanalar mudom oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Yaxshi eslaymiz. Bir vaqtlar mamlakatimizda taʼlim sohasida turli islohotlarga qoʻl urildi, majoziy aytganda, boshimizni toʻgʻri kelgan devorga bir-bir urib chiqdik. Shunday bilarmonliklarimizdan biri “kollejbozlik” siyosati edi. Biz ushbu “taʼlim strategiyasi”ga shu qadar berilib ketdikki, ilhomimiz tiyiqsizligidan, hatto oʻn — oʻn besh chaqirim atrofdagi birotira uy boʻlmagan dasht-u dalalarga ham uch-toʻrt qavatli kollejlari barpo qilib tashladik.

Oqibati nima boʻldi? Buni aytmasam ham, barchamiz yaxshi tushunamiz, anglaymiz. Bu yerda eng ogʻir yoʻqotish oʻrta taʼlim tizimi sohasida boʻldi. Maktablar qurilishi, ularga eʼtibor keskin tushib ketdi. Hamma joyda boʻlgani kabi buning ogʻriqli oqibatlari Samarqand viloyatida ham koʻrindi. Hududdagi qariyb 1 050 ta maktabning ahvoli achinarli darajaga kelib qoldi. Yaʼni ularning deyarli uchdan bir qismi kapital taʼmirla muhtoj, tomlaridan chakki oʻtar, devorlarini zax bosgan, sinfonxalari esa oʻquvchilar taʼlim olishi uchun mullaqo yaroqsiz holda edi.

Bu holat yurt kelajagi, millat taqdirini oʻylaydigan har qanday odam koʻnglini tashvishga solishi tabiiy edi. Shu bois Shavkat Mirziyoyev faoliyatining toʻrtinchi kunidayoq Pastdargʻom tumanidagi 72-maktabga bordi. U yerdagi manzarani koʻrib, har qanday insonning yuragi larzaga kelishi tayin edi: xom gʻishtdan qurilgan, tomsuvuqli, sovuq kunlarda isitish imkoni boʻlmagan bu xaroba maskanda 200

nafar bolajon taqdirning achchiq sinoviga dosh berib, ilm oldi...

Moliyaviy imkoniyatlar cheklangan, mahalliy byudjet degan tushunchalar xuddi siyosiy latifadek tuyuladigan ogʻir bir sharoitda viloyat hokimi ayni vaziyatdan chiqishning eng tezkor va maqbul yoʻlini topdi — boʻsh turgan qurilish tashkiloti binosini maktabga moslashtirish tashabbusini ilgari surdi. Bu favqulodda qaror oʻsha vaqtdayoq Shavkat Mirziyoyevning “yoʻq”dan “bor” qila olish qobiliyatini namoyon etgandi.

Bino qisqa fursat ichida chinakam oʻquv maskaniga aylantirildi va qish ostonasida oʻquvchilar ilk bor issiq va yorugʻ sinf xonalariga koʻchirildi. Ushbu ezgu tashabbusning mantiqiy davomi sifatida esa 2002-yilda shu hududda muhtasham, ikki qavatli yangi maktab binosi qad rostladi. Bugun oʻsha joy oʻrinda barpo etilgan zamonaviy, barcha sharoitlarga ega taʼlim dargohida 700 nafarga yaqin oʻgʻil-qizlar bilim olmoqda.

Shu oʻrinda men eʼtiboringizni muhim bir nuqtaga qaratmoqchiman. Shavkat Mirziyoyev moliyaviy imkoniyatlar cheklangan, maktablar “kollejbozlik siyosati” soyasida qolib ketgan zamonlar taʼlim tizimini qoʻllab-quvvatlashning oʻziga xos yangi tizimi — “yordamchi xoʻjalik” modelini joriy etdi. Unga koʻra maktablar qoshida homiylik va tashabbuskorlik asosida yordamchi xoʻjaliklar tashkil qilindi. Ulardan tushgan mablagʻlar bevosita taʼlim muassasalarini obodonlashtirish, infratuzilmasini yaxshilash hamda oʻquv muhitini yuksaltirishga yoʻnaltirildi.

Bunday noanʼanaviy, ammo xalq manfaatini koʻzlagan amaliy qarorlar tufayli qisqa vaqt ichida viloyatdagi yuzlab maktablarning moddiy-texnika bazasi yangilanib, eski va xarob maktablar oʻrinda mullaqo zamonaviy qulay va barcha shart-sharoitlarga ega taʼlim muassasalari qad rostladi.

Ayniqsa, shunday oqilona yondashuv tufayli Samarqandning turli goʻshalarida qad rostlagan 20 dan ortiq sport inshootlari, sobiq “Remzavod”ning tashlandiq hududi oʻrinda barpo etilgan Olimpiya xaxiralari sport maktabi hamda “Yoshlar markazi” minglab oʻgʻil-qizlarning orzulari roʻyobga chiqadigan sevimli maskanga aylanganini bugun alohida qayd etish oʻrinli deb oʻylayman. Bugun koʻpchilik samarqandliklar yaxshi eslashadi: oʻsha kezlarda Toyloq tumanida 5 000 oʻrinli muhtasham stadion foydalanishga topshirilgan edi.

Eng qizigiʻ, ushbu inshootlarning hech biri Davlat byudjeti hisobidan qilmagandi. Bu esa “Izlagan imkon topar” degan hikmatli ibora nechogʻli haqiqat ekanini amalda yana bir bor tasdiqlaydi.

Shavkat Mirziyoyevning ustoz va murabbiylarga boʻlgan cheksiz hurmati shunchalik ediki, u umuman imkoniyati yoʻq davrda ham ularga munosib sharoitlar yaratib berish yoʻlida oʻzini qiynardi. Aynan shu ezgu niyat ifodasi oʻlaroq Oqdaryo tumanidagi sobiq “Kolxozstroy”ning qarovsiz hududi oʻrinda zamonaviy “Ustoz” sanatoriysining barpo etilishi

chorak asriga jiddiy qaraydigan boʻlsak, erkinligimiz nazariy, hurriyatimiz qaysidir maʼnoda “qaram mustaqillik”dek tuyular edi. Koʻcha va xiyobonlarimizga osiladigan shiorlarimiz ham buni bot-bot eslatib turardi: “Yangi uy qurmay turib, eskinsini buzma!“. Aynan mana shu eskinsini buzmay saqlab qolish “anʼanasi” millat va davlat “kodi” maqomidagi milliy ramzlirimizda ham oʻz “tarovati va teran goʻzalligi”ni aks ettirishga ulgirdi. Deylik, mustaqillikka erishganimizdan keyin ham gerbimizdagi chamberakka alvon-la oʻralgan “iftixorimiz ramzi” boʻlgan paxta va gʻalla tasvirlari oʻzgarmadi. Nega? Holbuki, Prezidentimiz koʻp bor aytganlaridek, paxtadan oladigan daromadimiz oʻsha yillari bir milliard dollarga yetib-yetmagan. Shu holicha ham ushbu dehqonchilik mahsulotlari bizning ijtimoiy-maʼnaviy identligimizni belgilashi kerakmi? Biz oʻz asiyi orzu-armonlarimiz, ulugʻ niyatlarimiz va bu jahondagi ruhoniy “oʻzligimiz”ni shu oʻsimliklar siymosida koʻrishimiz kerakmi?.. Albatta, bu mustaqillikdan keyin ham bir oyogʻimiz mafkuraviy jihatdan sobiq tizim xarobalari uzra qolib ketganini anglatadi.

Men bekorga bu toʻgʻrida gapirmadim. Chunki ayni narrativ “Mirziyoyev davri” bizning dunyoqarashimizni qanday oʻzgartirganini yaxshi koʻrsatib bera oladi. Masalan, sal avval eslaganimdek, bir zamonlar nafaqat aktual, balki siyosiy ahamiyat kasb etgan “qishloq xoʻjaligi” gurunglari bugun hayotimizdagi qoʻrli oʻrnini yoʻqotdi. Shuning uchun ham bu mavzuda yozish va oʻqish endilikkda nafaqat anʼanadan chiqdi, balki mohiyatan zerikarli, primitiv boʻlib qoldi. Ongimizda sokin amalga oshgan, hali deyarli tahlil etilmagan ayni yangilanishlar bizga bir narsani ochiq eslatib turadi: bizda ittifoq parchalagandan keyin ham erkinlik masʼuliyatidan xavotir hissi bor edi (ehtimol, bu siyosiy hokimiyatni “yoʻqotib qoʻyish”dan qoʻriqsh boʻlgandir). Jumladan, traditional tutumlardan voz kechmaslik, boshqaruv hamda jamiyat hayotidagi “anʼanaviy ruh”ni saqlab qolishga intilish sezilar, shuning uchun shiorlarimiz ham, hali aytganimdek, milliy ozodlikdan koʻra koʻproq yaqin oʻtmishga qayta chorlayolgandek tuyulardi. Vaqt shuni koʻrsatdiki, mustaqilligimiz va oʻzligimizni ifoda etuvchi simvollarimiz — davlat ramzlarimiz mohiyatida ham oʻtgan asrning 90-yillaridagi siyosiy xavotir, qoʻrquv va ikkilanish tajassum topgan. Ayni mavzudagi soʻzimizni yakunlab shuni aytishim mumkinki, bu olmon faylasufi Erix Fromm tasvirlagan “Ozodlikdan qochish” fenomeniga juda yaqin hodisa edi.

Aytilgan mulohazalar bizning tasavvurlarimizda bugun mamlakatimizning uch xil xarakterdagi koʻrinishini aks ettirishi bilan nihoyatda ahamiyatli: “sovet Oʻzbekistoni”, “postkommunistik Oʻzbekiston” va “Yangi Oʻzbekiston”...

IX

Hech esimdan chiqmaydi: u kishi Samarqandda ishlayotgan davrlarda yonma-yon ketarkanmiz, hazil aralash savol berdim: “Goh-gohida uxlab ham turasizmi, Shavkat Miromonovich?”

U kishi oʻz odatiga sodiq holda jilmayib javob qildi: “Manzildan-manzilgacha moshinada nima qilish mumkin?”

Subhatimiz garchi mutoyiba ruhida kechgan boʻlsa-da, uning zamirida haqiqat yashirin edi. Men ochiq aytaman, shu paytgacha uning qaysi mahal uxlab yoki uyq ozatib dam olishini hech kim aniq aytib berolmasa kerak. Yuragi Vatani va xalq dardi, mehr-u muhabbati bilan urib turadigan, oʻz surati va siyratida MILLAT SHAVKATI timsolini tobora yorqin ifoda etib borayotgan Shavkat Mirziyoyevdan biz, kelajak avlod, qolaversa, tarix hali koʻp narsani oʻrganishi, saboq chiqarishiga oʻzida kuchli ehtiyoj sezishiga men aniq ishonaman.

Hech boʻlmaganda, birgina Vatanni, uning tarixi va oʻz xalqini sevishini u kishidan oʻrganishi, oʻzlashtirib olishning oʻzi ham olamni guliston qilishga yetadigan qudrat va salohiyat soladi qalbingizga.

Shavkat Mirziyoyev Bosh vazir boʻlib ishlagan yillarda ham bu koʻhna zamindan uzilib ketmadi. “Samarqand ruhi”ni “sayqallash”, qolaversa, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti doimo eʼtiborida turdi.

Ana shu ezgu qarash va yondashuv Samarqandning maʼnaviy hayotida tub burilish yasadi. Shaharda Registon, Shohi Zinda, Amir Temur, Bibixonim, Xoja Doniyor, Ruhobod, Hazrati Xizr, Rasadxona, Dahbed, Nodir devonbegi, Xoja Ahror Vahidi yodgorlik majmualari tarixiy qiyofasiga mos tarzda tiklandi.

Eng muhimi, bir vaqtlar qarovsizlik va noqonuniy qurilishlar tufayli mahallalar orasi, klmrlarningdir uy joyi ostida qolib ketgan muqaddas qadamjo — Imom Moturidiy hazratlarining qabri topilishi maʼnaviy-madaniy hayotimizda ulkan voqeikka aylandi. Ulugʻ alomanning muborak nomi, benazir ilmiy-maʼrifiy merosi va buyuk taʼlimoti yana xalq qalbiga yuksak ehtirom va izzat-ikrom bilan qaytarildi.

Men shu oʻrinda bir haqiqatni roʻyirost aytishni istardim: aslida hozirgi Samarqandning qayta

shuhrat topishi va dunyo sahnida yana “Yer yuzining sayqali” degan sharaflil nomga chin maʼnoda munosib koʻrilishi aynan oʻsha vaqtda boshlangan maʼnaviy uygʻonishdan kuch-quvvat olgan, desam, sira anglashmagan boʻlaman.

Zero, Shavkat Mirziyoyevning Samarqand viloyati rahbari sifatidagi faoliyati davrida asos solingan maʼnaviy uygʻonish keyinchalik butun mamlakat taqdiri va taraqqiyot yoʻlini belgilab bergan ulkan strategik islohotlar uchun mustahkam asos boʻldi. Muhimi, bu oʻzgarishlar quruq shior yoki balandparvoz daʼvatlar sifatida emas, balki xalqimiz tafakkuri va qarashlarini oʻzgartirgan islohot sifatida ularning hayotiga chuqur kirib bordi.

Bugun xalqimiz qalbida jo boʻlgan milliy oʻziikni anglash va millat tarixi bilan bogʻliq tushunchalar, maʼnaviy qadriyatlariga nisbatan shakllangan yuksak hurmat va muqaddas qadamjolar, bebaho tarixiy obidalarni bunyod etish hamda ularni asrab-avaylashga boʻlgan daxldorlik hissi zamirida oʻsha yillarda yongan milliy gʻurur va vatanparvarlik mashʼalasining qudratli nurini koʻrish mumkin.

X

Maqola avvalida Samarqand garchi bir necha ming yillik tarixga ega boʻlsa-da, uning shonli oʻtmishida oʻz nomini qoldira olgan bunyodkorlar sanoqlik degan edim. Agar siz bu oʻtmish gavhari boʻlgan shaharga yaqin orada bormagan boʻlsangiz, endi boring, uning goʻzalligidan zavqlaning, sahnidan nur yogʻilib turgan maydonlari, muazzam Imom Moturidiy, Imom Buxoriy qadamjolarini ziyorat qiling. Tarix va bugun uygʻunlashib ketgan “Boqiy Samarqand” ansamblini koʻring. Bozorlar, mahallalar, koʻchalarni kezip, odamlarning yuz-u koʻziga boqing. Chor atrofda taralib turgan qadim oʻtmish va zamon ohanglariga quloq tuting...

Shunda angloysizki, ruhiyatingizda paydo boʻlgan iliqlik, qalbingizga inayotgan shukuh qadim Samarqand ruhiyatidir. Ehtimol, oʻsha dam yuragingizda shahar tarixida iz qoldirgan Vatani farzandlari nomini yana uzaytirishga ishtiyoq paydo boʻlar...

U kishi bugungacha bosib oʻtgan yoʻl odam qalbid shunday ezgu tuygʻularni uygʻotadi. Zotan, bu yoʻl sharaflil va shavkatli yoʻldir.

Bir paytlar Uinston Cherchill oʻz zamonasiga ishora qilib, “Biz ulkan voqeiklar va mayda odamlar davrida yashamoqdami?”, degan edi. Kinoya aralash aytilgan ayni malomat, oradan bir asrga yaqin vaqt oʻtsa-da, bugun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagandek. Ayniqsa, nolish va ismsiz nafrat tobora milliy qadriyatga aylanib borayotgan bizning bugungi kunlarimizga ham taalluqli bu gaplar, desam, hech ham adashmagan boʻlaman. Xususan, bu achchiq taʼna koʻz oʻngimizda boʻlayotgan shuncha oʻzgarishlar, yangilanishlarning qadriga yetmayotgan, koʻrib koʻrmaganga olayotgan “mayda odamlar”ga tegishli, albatta.

Oʻzbekiston bundan oʻn yil burun qanday edi, hayotimiz, sharoitlarimiz, turish-turmushimiz, tafakkurimiz, biyroni tilimizning hali nechogʻli edi oʻsha paytlarda?! Afsuski, odam bolasi tez unutadi. Qadriga yetish, shukr qilish degan oddiy insoniy tuygʻularni ham esdan chiqaradi. Koʻz oʻngimizda yuz berayotgan katta oʻzgarishlarning farqiga bormaydi yoki bilib turib takabburlik qiladi.

Yaqinda yoshi saksonga borayotgan bir tanishim “Falonchi qamalgandi, oʻgʻli lavozimga oʻtiribdi. Falonchi ishdan olingand, uch oy oʻtmay sal bundayroq boʻlsa ham, vazifaga qoʻyilibdi. Men tushunmadim, nega bunday boʻlyapti?” deb soʻrab qoldi.

Ochiqiʻ, u kishidan xafa ham boʻlmadim, gapiga hayron ham qolmadim. Negaki, bitta u emas, aksariyatimizda shunday fikr bor: birov qamaldimi, urugʻ-aymogʻi bilan “supurilishi” kerak, ishdan ketgan odam nafaqat siyosiy sahna, hatto jamoatchilik nazaridan uzoqda, koʻzga koʻrinmay yurishga mahkum...

Toʻgʻri, ilgari shunday edi. Bugun zamon ham, siyosat ham oʻzgardi. Biroq taassufki, jamiyat buni toʻgʻri anglab ololmayotir. Hayotimizda boʻlayotgan oʻzgarishlar va ularga munosabatimizni kuzatib turib, baʼzan bir narsaga hayron qolaman: bizda ham faxr, Millat va Vatani zafarlaridan quvonib, gʻururlanish hissiyoti bormi yoki bu tuygʻularimizni ham mustabidlik toʻfonlariga “yem” qilganmizmi? Shuncha ishlar, oʻzgarish-u yangilanishlar boʻlayotir, ammo aksariyat hollarda ularga yondashuvimiz, hali aytgan tanishimnikidek, oʻta nosogʻlom...

Mayli, targʻiboti, Prezident siyosati, bugungi kunlarimiz qadriini odamlarga keng va bafurja sharhlash, tushuntirib berish amaliyoti, biroq bu ishlarimiz hozirda koʻngildagidek kechmayotgani alohida munozara mavzusi. Ammo biz, tarixi ming yillarga teng xalq, oʻtmishi afsonaga aylangan yurt farzandlari sifatida qalbizimda milliy gʻurur tuygʻusini shakllantirishni oʻrganishimiz bugun juda dolzarb degan boʻlardim.

Men oʻtgan yili Prezidentimizning Oʻzbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvida u kishiga yuzlanib, shunday murojaat qilgan edim:

“Bundan 6-7 asr ilgari bu yurtda koʻtarilgan muazzam bayroq oʻz atrofida jahonni birlashtirgan, oʻziga qaratgan edi. Bu, shubhasiz, buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur qurgan qudratli davlatning bayrogʻi edi.

Oradan qariyb yetti asr oʻtib, uzoq yillar koʻzdan panada qolgan oʻsha bayroq bugun yana hilpiray boshladi. Bu bayroq bugungi Yangi Oʻzbekistonning bayrogʻidir.

Bugun javon uzra magʻrur hilpirayotgan ushbu bayroqni Siz koʻtardingiz, muhtaram Shavkat Miromonovich!”

Men bugun ham ayni fikrimda sobitman!

HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH
YUZASIDAN
FIKR ALMASHILDI

Ashxobod shahrida O'zbekiston va Turkmaniston parlamentlararo hamkorlik guruhlar i'zolarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot



O'zbekiston parlamenti delegatsiyasi tarkibida Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi, parlamentlararo hamkorlik guruhi hamrais Anvar To'ychiyev ishtirok etdi.

Uchrashuvda ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarining bugungi holati va parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston va Turkmaniston munosabatlari izchil rivojlanayotgani alohida ta'kidlandi va oliy darajada erishilgan kelishuvlarning samarali ijrosini

ta'minlashda parlamentlararo muloqot hamda parlament nazorati muhim ahamiyat kasb etishi aytili.

Muloqot chog'ida parlament qo'mitalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish, "yashil" iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar yo'nalishlarida qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, hududlararo aloqalarni mustahkamlash maqsadida Buxoro va Mari viloyatlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga e'tibor qaratildi.

GLOBAL BOZORDAGI DADIL QADAM



Bu kompaniyalar har qanday bozorga oddiy tarzda kirmaydi. Ular uzoq yillik tahlil, risk bahosi va strategik prognozlar asosida qaror qabul qiladi.

Ommaviy aksiyalar taklifining yana bir muhim jihati — O'zbekiston birinchi marta global kapital bozoriga institutsional darajada chiqmoqda. Ilgari biz, asosan, davlat kreditlari yoki yevroobligatsiyalar orqali tashqi moliyani jalb qilgan bo'lsak, endi to'g'ridan-to'g'ri aksiyadorlik kapitali orqali xalqaro bozor bilan integratsiyalashyapmiz. Bu esa iqtisodiyotimiz sifat jihatdan yangi bosqichga o'tayotganini anglatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, jamg'armaning salmoqli ulushi yuz millionlab dollar miqdorida xalqaro va mahalliy investorlarga taklif etildi.

Bu — xalqaro bozor uchun O'zbekiston aktivlariga talab yuqori ekanini ko'rsatadigan muhim ko'rsatkich. Yana bir muhim masala — mazkur jarayonning ichki iqtisodiyotimizga ta'siri. Chunki ommaviy aksiyalar taklifi faqat xorijiy investorlar uchun emas. U mahalliy aholi va xususiy investorlar uchun ham yangi imkoniyat eshiklarini ochadi. Endilikda oddiy fuqarolar ham mamlakatning yirik aktivlariga aksiyador sifatida sherik bo'lish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa aholida investitsion madaniyatni shakllantirish,



kapital bozorini rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, London fond birjasi kabi nufuzli maydonda joylashish — O'zbekiston uchun xalqaro moliyaviy imij nuqtai nazaridan ulkan yutuq. Bu kelgusida yirik sanoat korxonalari, banklar va strategik tashkilotlarning xalqaro bozorga chiqishi uchun ham mustahkam poydevor yaratadi. Albatta, ushbu jarayon bizdan yanada katta mas'uliyat ham talab qiladi. Chunki xalqaro bozor shaffoflikni, korporativ boshqaruv madaniyatini va hisobdorlikni talab qiladi. Endi har bir qor, har bir iqtisodiy ko'rsatkich global investorlar diqqat markazida bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat kompaniyalarida

samaradorlik va ochiqlikni yanada kuchaytiradi.

Eng asosiysi — ayni ommaviy aksiyalar taklifi mamlakatimizdagi islohotlar ortga qaytmasligining amaliy isboti. O'zbekiston endi yopiq iqtisodiyot emas. Biz global iqtisodiy tizimning faol ishtirokchisiga aylanmoqdamiz. Shu ma'noda, bu voqeani nafaqat moliyaviy jarayon, balki Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi iqtisodiy nufuzi oshib borayotganining tarixiy ramzi sifatida baholash mumkin.

Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

KUN TARTIBIDA —
IQTISODIY
ALOQALAR

Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida "Rossiya — Islom dunyosi: Qozon-Forum — 2026" XVII xalqaro iqtisodiy forumi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Kobul Tursunov ishtirok etdi.

Forum

Mazkur nufuzli anjumanda 100 ga yaqin davlat vakillari, xalqaro tashkilotlar, biznes doiralari hamda ekspertlar ishtirok etdi va ular iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, transport-logistika yo'laklarini takomillashtirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini muhokama qildi.

Tadbir doirasida Yevroosiyo

makonida sanoat kooperatsiyasi, "yashil" energetika, innovatsion texnologiyalar va islom moliyasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha fikr almashildi. Shuningdek, hududlararo aloqalarni mustahkamlash va yangi qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish istiqboliga alohida e'tibor qaratildi.

"Xalq so'zi".

Yig'ilish

IJTIMOIY MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH
UCHUN DAVLAT GRANTLARI

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda joriy yilda o'tkaziladigan davlat granti tanlovlarini shakllantirish maqsadida mart-aprel oylarida hududlarda amalga oshirilgan xizmat safarlari natijalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Ishchi guruh a'zolari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 600 dan ortiq ijtimoiy muammolar o'rganilgan

hamda ularni fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida hal etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Yig'ilish davomida hududlarda aniqlangan ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan davlat grantlarini e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Grantlar infratuzilmani yaxshilash, aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, ekologik muammolarni bartaraf etish, sport maydonchalari va

kutubxonalar tashkil etish, ta'limni rivojlantirish va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Mazkur bosqichda jami 146 ta loyiha uchun 21,7 mlrd. so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan. Davlat granti tanlovlari va barcha jarayonlar "ngo.gov.uz" platformasida amalga oshirilishi ma'lum qilindi. Ushbu platforma orqali fuqarolik jamiyati institutlari o'z loyihalarini taqdim qilish, baholash jarayonlarini kuzatish hamda muhokamalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

«Xalq so'zi».

TA'LIM SIFATI VA
PEDAGOGLAR HIMOYASI —
PARLAMENT NAZORATIDA

Shu bilan birga, bugungi kunda yangi baholash tizimi 3 434 ta maktabni qamrab olgan bo'lib, kelgusi o'quv yilidan boshlab ushbu ko'rsatkichni 4500 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Mazkur maktablarda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari 53 foizdan 72 foizgacha oshgan. Yangi baholash tizimi joriy qilingan maktablar orasida yuqori natijalarga erishgan 275 ta maktabning butun pedagog jamoalariga 40 foizgacha

yaratilgan, 1 404 ta binoga maxsus banduslar o'rnatilgan, 115 ta maktabda Brayl alifbosidagi tugmali liftlar joriy qilingan. So'nggi besh yilda 7 mingdan ortiq pedagoglar inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirgan. 2026-yildan boshlab pedagoglarning bilim va malaka oshirish kurslarining o'quv reja va dasturlariga alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashga oid "Ta'limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv" moduli ham majburiy dasturlarga kiritildi.

Muhokamalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida ham axborot berildi.

Xususan, ijtimoiy reestrga kiritilgan oilalarning 387 ming nafar farzandi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. Kambag'al oilalar farzandlarining nodavlat bog'chalar uchun to'lovlarining 40 foizi davlat tomonidan qoplab

berilmoqda. Bugungi kunda 125 ming nafardan ziyod o'quvchilar IT, xorijiy tillar va kasb-hunar to'garaklariga jalb qilingan bo'lib, ular xarajatlarining 80 foizi Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilmoqda.

Munozaralarda "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun ijrosiga alohida urg'u berildi. Ta'kidlanganidek, pedagoglarni majburiy mehnatga jalb qilish holatlariga qat'iy chek qo'yilgan, o'qituvchining huquqiy maqomi esa Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Shuningdek, 15 yillik staj va oliy malaka toifasiga ega pedagoglar uchun ipoteka kreditlarining boshlang'ich to'lovining 25 foizini davlat tomonidan qoplash tartibi joriy etilgan. "Yil o'qituvchisi" va "Kasbiy mahorat yetakchisi" tanlovlari g'oliblariga 525 million so'mgacha mukofot puli ajratilishi ham pedagoglarni rag'batlantirishda muhim qadam bo'lishi ta'kidlandi.

Muhokamalar davomida siyosiy partiyalar fraksiyalari a'zolari ham sohadagi dolzarb masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi vakillari mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, maktablarda kasb-hunar va xorijiy tillarni o'qitishni kengaytirish, maktablardagi o'quvchilar sig'imi muammosini hal etish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish masalalarini ko'tardilar.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya va o'zbek tilining ta'lim jarayonidagi o'rnini kuchaytirish lozimligini ta'kidladi. Shuningdek, milliy o'quv dasturining samaradorligi va pedagoglarning xalqaro sertifikatsiyasi yuzasidan ham qator savollar o'rtaqa tashlandi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zolari tomonidan pedagoglarning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish, ortiqcha hisobotbozlikni qisqartirish hamda qishloq maktablarida ta'lim sifatini oshirish masalalariga e'tibor qaratildi.

O'ZXP fraksiyasi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'lim qamrovini kengaytirish va chekka hududlardagi kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish masalalarini ko'tardi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi deputatlari esa "yashil maktab" konsepsiyasini keng joriy qilish, ekologik ta'lim ulushini oshirish va maktab infratuzilmasini ekologik standartlar asosida rivojlantirish yuzasidan takliflar bildirdi.

Deputatlar ta'lim sifatini yanada oshirish, pedagoglarni rag'batlantirish va inklyuziv muhitni rivojlantirishga doir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surdi.

Vazir deputatlarining savollari haqida berib, ular tomonidan bildirilgan takliflar sohani yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

"Hukumat soati" yakunida ta'lim sifati va pedagoglarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish, shuningdek, mazkur sohada samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

VAZIR DEPUTATLARNING SAVOLLARIGA
JAVOB BERDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zLiDeP fraksiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Hukumat soati"da "Mamlakatimizda chorvachilik sohasini rivojlantirish, veterinariya xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish va yaylov yerlaridan samarali foydalanish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida"gi masala muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlarining savollariga Qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, mahsulotlar yetishtirishni oshirish, ozuqa bazasi va naslchilikni yaxshilash, aholini chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, sohaga ilm-fan va innovatsiyalarni joriy qilish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar hayotga tatbiq etilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2025-yilda chorvachilik mahsulotlarining yalpi qishloq xo'jaligidagi ulushi 53 foizni tashkil etib, soha hajmi 265,7 trln. so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich 2017-yildagiga nisbatan 4,1 barobar o'sgan.

Sohani rivojlantirish maqsadida umumiy qiymati 5,3 trln. so'mlik 1 103 ta loyiha amalga oshirilgan. Naslchilikni yaxshilash uchun xorijdan 217 ming bosh qoramol va 282 ming bosh qo'y-echki olib kelingan. Jumladan, Mo'g'ulistondan 100 ming boshdan ortiq "Bayat" zotli qo'y-lar import qilinib, parvarish qo'y-echki qo'yilgan. Bugungi kunda xo'jaliklarda 13 mln. 565 ming bosh qoramol, 24 mln. 47 ming bosh qo'y-echki hamda 97 mln. 932 ming bosh parranda mavjud.

Chorva ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida 470,5 ming gektar maydonda beda, silosbop va don uchun makkajo'xori, oq jo'xori hamda xashaki lavlagi ekilgan.

2025-yilda respublika bo'yicha qariyb 3 mln. tonna go'sht, 12,6 mln. tonna sut va 9,5 mlrd. dona tuxum ishlab chiqarilgan. Shuningdek, ichki bozorda go'sht narxini barqarorlashtirish maqsadida joriy yilda 87,4 ming tonna go'sht import qilinib, bu ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan 28 foizga oshgan. Pokiston, Hindiston va Belarusdan go'sht mahsulotlarini tezkor yetkazib berish yo'lga qo'yilgani ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash imkoniyatini kengaytirdi.

Vazirga ko'ra, bugungi kunda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetishtirilayotgan sut va tuxum mahsulotlari ichki ehtiyojni to'liq qoplab bermoqda.

Veterinariya xavfsizligini ta'minlash maqsadida esa respublikaning bufer hududlaridagi 82 ta tumanda 8 mln. boshdan ortiq chorva mollarida, 14 mln. boshdan ziyod parrandalarda yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik emlash tadbirlari o'tkazilmoqda.

Yaylov xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishida esa mutlaqo yangi boshqaruv tizimi joriy qilingan. Respublikada 15,8 mln. gektar yaylov xatlovidan o'tkazilib, ularning raqamli xatlarlari yaratilgan. 5 mln. gektardan ziyod yaylov maydonlari chorvachilik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ijara berilgan.

Muhokamalar davomida deputatlar chorvachilikda ozuqa bazasi, naslchilik, qayta ishlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ichki bozorda go'sht va sut mahsulotlari narxlarini barqaror saqlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatdoshligini oshirish, veterinariya xizmatlarini to'liq raqamlashtirish hamda eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Deputatlar tomonidan yaylovlar degradatsiyasining oldini olish, sut va ta'minotini yaxshilash, chorvachilik sohasini qo'llab-quvvatlash, resurs tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash orqali go'sht, sut va tuxum yetishtirishni ko'paytirish, xususiy veterinariya xizmatlari bozorini kengaytirish va korruptsiyaviy omillarni cheklash bo'yicha qator fikr-mulohazalar bildirildi. Shuningdek, soha istiqboliga doir qator masalalar yuzasidan vazirga savollar bilan murojaat qilindi.

Xususan, O'ZLiDeP fraksiyasi a'zolari sanoatlashgan chorvachilikni rivojlantirish uchun imtiyoz va subsidiyalari berilishiga qaramay, mavjud chorva mollarining sanoatlashgan chorvachilik ulushida past ko'rsatkich kuzatilayotganiga urg'u berib,

bu borada qanday yangicha yondashuvlar belgilangani bilan qiziqdi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zolari esa saylovchilar bilan uchrashuvlarda yaylovlarga suv chiqarilmagani sababli yerlar qurib ketayotganini haqida murojaatlar bo'layotganini qayd etib, aholiga chorvachilikni rivojlantirish uchun yaylov ajratish va suv ta'minoti muammolarini yechish bo'yicha qanday choralar ko'rilayotganini so'radi.

"Adolat" SDP fraksiyasi vakillari tomonidan parrandachilik sohasida naslchilikni rivojlantirish, raqamlashtirish, profilaktik emlash qamrovini oshirish



va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash choralari qanday tashkil etilayotgani masalasi ko'tarildi.

O'ZXP fraksiyasi vakillari esa go'sht va sut mahsulotlari tannarxining barqarorligini ta'minlash maqsadida intensiv usulda ozuqa mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, chorvachilik uchun ajratilgan yer maydonlarining samaradorligi qanday baholanayotgani bilan qiziqdi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zolari esa vazirlik tomonidan kushonalar faoliyatining sanitariya va ekologik talablarga mos ravishda tashkil etilishini monitoring qilib borishga oid masalani ko'tardi.

Vazir deputatlar tomonidan ko'tarilgan barcha savollarga batafsil tushuntirishlar berib o'tdi.

"Hukumat soati"da soha istiqboliga qaratilgan qator takliflar berilib, kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

Prezident Administratsiyasi huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan Namangan shahrining Davlatobod tumanida mehr, iroda va insoniylik bayrami — "Inson uchun" shiori ostidagi inklyuziv marafon tashkil etildi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi — 2 bob. Ofset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhish S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turok ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.20 Topshirildi — 02.20 1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi